



THE IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF EMPATHIC QUALITIES IN FUTURE TEACHERS BASED ON MODERN STRATEGIES (ON THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN)

Mambetkarimova Indira Polatbaevna

1st year doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18592912>

ARTICLE INFO

Received: 04th February 2026

Accepted: 09th February 2026

Online: 10th February 2026

KEYWORDS

Empathic qualities, future teacher, pedagogical technology, modern strategies, reflective learning, pedagogical competence, Republic of Karakalpakstan.

ABSTRACT

This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing empathic qualities in future teachers based on modern strategies, as well as ways to improve pedagogical technologies aimed at fostering empathy. The study reveals the essence of empathy, its role in the professional competence of a teacher, and its significance within a learner-centered education system. Furthermore, the article examines the effectiveness of reflective learning, role-playing activities, pedagogical trainings, and case-study technologies in developing empathic qualities. Based on the example of educational institutions in the Republic of Karakalpakstan, practical recommendations for improving the process of forming empathic qualities in future teachers are proposed.

ZAMONAVIY STRATEGIYALAR ASOSIDA BO'LG'USI PEDAGOGLARDA EMPATIK SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Mambetkarimova Indira Polatbaevna

Nukus davlat pedagogika instituti 1-kurs doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18592912>

ARTICLE INFO

Received: 04th February 2026

Accepted: 09th February 2026

Online: 10th February 2026

KEYWORDS

Empatik sifatlar, bo'lg'usi pedagog, pedagogik texnologiya, zamonaviy strategiyalar, reflektiv ta'lim, pedagogik kompetensiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada zamonaviy strategiyalar asosida bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari hamda ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida empatiya tushunchasining mohiyati, uning pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyasidagi o'rni hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada reflektiv ta'lim, rolli o'yinlar, pedagogik treninglar va keys-stadi texnologiyalarining empatik sifatlarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari



ko'rsatib berilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim muassasalari misolida bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Bugungi globallashuv va ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarimoqda. Jumladan, zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchi shaxsini chuqur tushuna olishi, uning hissiy holatini his etishi va unga mos pedagogik yondashuvni tanlay bilishi bilan ham ajralib turishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, empatik sifatlarni bo'lg'usi pedagog kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ayni paytda, Qoraqalpog'iston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida empatiyani shakllantirish masalasi yetarlicha tizimlashtirilmaganligi, mavjud pedagogik texnologiyalarning esa ko'proq nazariy bilimlarni egallashga yo'naltirilgani kuzatiladi. Shunday ekan, bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy strategiyalar asosidagi pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Empatik sifatlarni shaxsning ijtimoiy-psixologik yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, pedagog faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, empatiya tushunchasiga psixologiya fanida berilgan ilmiy ta'riflarga e'tibor qaratish lozim.

Jumladan, mashhur amerikalik psixolog K. Rogers empatiyani "insonning boshqa shaxsning ichki dunyosini, uning hissiyotlari va kechinmalarini go'yoki o'sha insonning o'zi kabi his etish va anglash qobiliyati" sifatida talqin etadi. Uning fikricha, empatiya samarali pedagogik muloqotning asosiy sharti bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantiradi [5].

Shuningdek, nemis psixologi T. Lipps empatiya fenomenini "emotsional hamohanglik" nuqtayi nazaridan izohlab, uni shaxsning boshqalarning hissiy holatiga ichki jihatdan moslashish qobiliyati deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, empatik sifatlarni insonning nafaqat hissiy, balki psixofiziologik reaksiyalarida ham namoyon bo'ladi. Demak, pedagog shaxsida empatiklikning rivojlanganligi o'quvchi holatini chuqur his qilish va unga mos pedagogik ta'sir choralarini tanlash imkonini beradi [4].

O'z navbatida, A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi doirasida empatiyani kuzatish, taqlid va modellashtirish orqali shakllanadigan ijtimoiy-psixologik sifat sifatida izohlaydi. Uning fikricha, pedagoglar empatik xulq-atvor namunasini ko'rsatish orqali talabalar va o'quvchilarda ham mazkur sifatni



rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadilar [3, 141-154].

Pedagogik nuqtayi nazardan esa, Azizxo'jaeva empatik sifatlarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadi. U empatiyani o'quvchi shaxsini tushunish, uning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etishning muhim omili deb hisoblaydi. Shuningdek, olim empatik yondashuv pedagogning kasbiy refleksiyasini kuchaytirishini alohida ta'kidlaydi [2].

Tojiyev va Ziyomuxamedov fikricha ham empatik sifatlarni pedagogik faoliyat samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Xususan, empatiyani o'qituvchining emotsional madaniyati, pedagogik odobi va muloqot kompetensiyasi bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladilar. Ularning ta'kidlashicha, empatik pedagog o'quvchilarning ruhiy holatini to'g'ri baholay oladi, ularni qo'llab-quvvatlaydi va ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi [6].

Shu bois, empatik sifatlarni pedagogik-psixologik jihatdan murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, u shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvoriy komponentlari birligida namoyon bo'ladi. Shu bois bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni shakllantirish jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va zamonaviy pedagogik strategiyalar asosida tashkil etilishi zarur.

Hozirgi vaqtda pedagog kadrlar tayyorlash tizimida asosan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Biroq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi

doirasida pedagogning emotsional-intellektual rivoji ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli, bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni shakllantirish masalasi alohida pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi zarur.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, talabalar ko'pincha nazariy bilimlarga ega bo'lsalar-da, real pedagogik vaziyatlarda o'quvchi hissiyotlarini anglash va ularga mos munosabat bildirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Demak, bu holat empatik sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy strategiyalarning yetarli darajada qo'llanilmayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda empatik sifatlarni shakllantirishda interfaol va innovatsion strategiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Birinchi, reflektiv ta'lim strategiyasi bo'lg'usi pedagoglarda o'z hissiy holatini anglash va boshqalarning his-tuyg'ularini tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu strategiya asosida talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, o'z xatti-harakatlarini baholaydi va xulosalar chiqaradi.

Ikkinchi, rolli o'yinlar va pedagogik treninglar empatik tajribani amaliy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi. Xususan, "o'qituvchi-o'quvchi", "o'qituvchi-ota-ona" kabi rolli vaziyatlar orqali talabalar turli ijtimoiy rollarni his etadilar va boshqalar holatiga kirib borishni o'rganadilar.

Uchinchi, muammoli ta'lim va keys-stadi texnologiyalari real pedagogik muammolarni empatik yondashuv



asosida hal etish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bunda talabalar muammoni nafaqat mantiqiy, balki emotsional jihatdan ham tahlil qilishga o'rganadilar.

Bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish, avvalo, ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Ya'ni pedagogik fanlar dasturiga empatiya, emotsional intellekt va pedagogik muloqot madaniyatiga oid maxsus modullarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Chunki empatiya faqat ma'ruza orqali emas, balki real pedagogik vaziyatlarda shakllanadi. Shu bois pedagogik amaliyot jarayonida talabalar faoliyatini empatik mezonlar asosida baholash tizimini joriy etish lozim.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi milliy-madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda, mahalliy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy munosabatlarni hisobga oluvchi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish empatik sifatlarning yanada samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lg'usi pedagoglarda empatik sifatlarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida pedagogning empatik yondashuvi o'quvchilar shaxsiy rivoji va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy strategiyalar asosida empatiksifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish ilmiy-pedagogik jihatdan asoslangan, tizimli va amaliy yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

References:

1. Avliyokulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
2. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi –Toshkent, 2000
3. Bandura, A., & Walters, R. H. (1977). Social learning theory (Vol. 1, pp. 141-154). Englewood Cliffs, NJ: Prentice hall.
4. Lipps, T. (1979). Empathy, Inner Imitation, and Sense-Feelings i 'A Modern Book of Esthetics'.
5. Rogers, C. R. (1995). On becoming a person: A therapist's view of psychotherapy. Houghton Mifflin Harcourt.
6. TOJIYEV, M., & ZIYAMUXAMEDOV, B. R. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: "Tafakkur bostoni" –2012.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes (Vol. 86). Harvard university press.